

ISSN: 2181-4031

DOI Journal 10.56017/2181-4031

JOFS

5-СОН

МАЙ, 2023

ФУНДАМЕНТАЛ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

Journal of Fundamental Studies

ЖУРНАЛ ФУНДАМЕНТАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ



IMFAKTOR
PAGES



ISSN: 2181-4031
DOI Journal 10.56017/2181-4031

**ФУНДАМЕНТАЛ ТАДҚИҚОТЛАР
ЖУРНАЛИ**
I-ЖИЛД, 5-СОН

**ЖУРНАЛ ФУНДАМЕНТАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ
ТОМ-I, НОМЕР-5**

**JOURNAL OF FUNDAMENTAL STUDIES
VOLUME-I, ISSUE-5**

ТОШКЕНТ – 2023

ФУНДАМЕНТАЛ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ ФУНДАМЕНТАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF FUNDAMENTAL STUDIES

№ 5 (2023) DOI <http://dx.doi.org/10.56017/2181-4031-2023-5>

Бош мұхаррир:

Тураев Б. – фалсафа фанлари доктори, профессор

Масъул мұхаррир:

Расурова Д. – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент

Таҳририят аъзолари:

- | | |
|----------------|---|
| Кенжабаев А. | – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор |
| Расурова Д. | – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент |
| Саттаров О. | – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент |
| Исҳоқов М. | – тарих фанлари доктори, профессор |
| Абдуҳалимов Б. | – тарих фанлари доктори, профессор |
| Каримов Б. | – тарих фанлари номзоди, доцент |
| Мадумаров Т. | – юридик фанлар доктори, профессор |
| Қодиров Б. | – юридик фанлар доктори, доцент |
| Қиличев Х. | – юридик фанлари бўйича фалсафа доктори |
| Баҳодиров Р. | – фалсафа фанлари доктори, профессор |
| Саифназаров И. | – фалсафа фанлари доктори, профессор |
| Идиров У. | – сиёсий фанлар доктори, профессор |
| Абдуллаев Н. | – сиёсий фанлар номзоди, доцент |
| Сатторов А. | – сиёсий фанлар номзоди, доцент |
| Умаров А. | – социология фанлари доктори, профессор |
| Матибаев Т. | – социология фанлари доктори, профессор |
| Каюмов К. | – социология фанлари бўйича фалсафа доктори |

Мазкур фанлараро илмий-амалий журнал Ўзбекистон Республикаси Президенти Администрацияси ҳузуридан Ахборот ва оммавий коммуникациялар агентлиги томонидан 2022 йил 22 декабрь куни № 054837-сонли гувоҳнома билан оммавий ахборот воситаси сифатида давлат рўйхатидан ўtkazilgan.

Саҳифаловчи\Page Maker\Верстка: Абдураҳмон Ҳасанов

Таҳририят манзили: <https://imfaktor.uz>, 100152, Тошкент шаҳри, Учтепа тумани, “Ватан” МФЙ, Чилонзор 24-мавзеси, 2/27-үй.

Телефон номер: +99894-410 11 55, E-mail: tahririyat@imfaktor.uz

© IMFAKTOR Pages, 2023 йил.

© Муаллифлар жамоаси, 2023 йил.

ФУНДАМЕНТАЛ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ ФУНДАМЕНТАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF FUNDAMENTAL STUDIES

Юридик фанлар

RAHMONOV Jasur Rasulovich

*Bojxona qo'mitasi, Bojxona instituti
magistranti, bojxona xizmati mayori
<https://doi.org/10.5281/zenodo.78953003>*

ВОЖНОСТЬ ОДИНОЧНЫХ ПРИМЕРОВ В КОРРУПЦИОННОМ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ НА МАЛОГАЗИНАХ И МАГАЗИНАХ СРЕДИ МАЛЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada tovarlarni bojxona chegarasi orqali noqonuniy olib kirish yuzasidan javobgarlikni xalqaro tajribalarni qo'llagan holda ta'minlash hamda ular bo'yicha javobgarlikni takomillashtirish masalalari yuzasidan fikr yuritilgan.

Калит со'злар: bojxona, tovar, yuk kuzatuv hujjatlari, jinoiy va ma'muriy javobgarlik.

РАХМАНОВ Хасур Расулович

*Таможенный комитет, Таможенный институт
магистрант, майор таможенной службы*

ПЕРСПЕКТИВЫ КВАЛИФИКАЦИИ ОТДЕЛЬНЫХ ДЕЛ О НАРУШЕНИИ ТАМОЖЕННОГО ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВА НА ОСНОВЕ МЕЖДУНАРОДНОГО ОПЫТА И ПОВЫШЕНИЯ ОТВЕТСТВЕННОСТИ ЗА НИХ

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматриваются вопросы обеспечения ответственности за незаконный ввоз товаров через таможенную границу с использованием международного опыта и повышения ответственности за них.

Ключевые слова: таможня, товары, сопроводительные документы, уголовная и административная ответственность.

RAKHMANOV Jasur Rasulovich

*Customs Committee, Customs Institute
graduate student, Major of the Customs Service*

PROSPECTS FOR QUALIFICATION OF CERTAIN CRIMES IN THE CUSTOMS SPHERE BASED ON INTERNATIONAL EXPERIENCE AND IMPROVEMENT OF RESPONSIBILITY FOR THEM

ANNOTATION

Prospects for qualifying individual cases of violation of customs legislation based on international experience and increasing responsibility for them.

Keywords: customs, goods, accompanying documents, criminal and administrative liability.


Bugungi kunda yurtimizda milliy bojaxona tizimini yanada takomillashtirish yo'lida amalga oshirilayotgan keng ko'lamlı islohotlar tashqi iqtisodiy faoliyatini yanada rivojlantirish, Respublika iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash bilan bir qatorda, tashqi savdo jarayonlari integratsiyasiga o'z ulushini qo'shayotgan TIF sub'ektlariga bojaxona tartibotlaridan qo'shimcha qulayliklar yaratishga e'tibor qaratilmoqda. Bu esa o'z navbatida, bojaxona organlari tomonidan bojaxona nazorati shakllarini yanada samaraliroq bo'lishi borasida amalga oshirilayotgan ishlarning natijadorligini oshirishga muhim ahamiyat kasb etadi.

Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi "Davlat bojaxona xizmati to'g'risida"gi Qonuni bilan bojaxona organlariga bir qancha vakolatlar va majburiyatlar berilgan bo'lib, shunga asosan, bojaxona organi xodimlari Respublika hududiga olib kirilayotgan hamda Respublika hududidan olib chiqilayotgan tovar va transport vositalari ustidan bojaxona nazoratini amalga oshirish hamda bojaxona to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi ustidan nazoratni tashkil etish majburiyati yuklatilgan [1].

Bojaxona organlari O'zbekiston Respublikasining yagona bojaxona siyosatini amalga oshirish va iqtisodiy manfaatlarini himoya qilish maqsadida tuziladi. Shu bilan birga bojaxona organlari huquqni muhofaza qiluvchi organ hisoblanadi. Bojaxona organlari faoliyatining asosiy printsiplari qonuniylik, yagonalik, ochiqlik va shaffoflik, jismoniy hamda yuridik shaxslarning huquqlari, yerkinliklari va qonuniy manfaatlariga rioya yetish hamda ushbu huquqlar, yerkinliklar va qonuniy manfaatlarni hurmat qilishdan iboratdir [2].

Shunga asosan, bojaxona organi xodimlari tomonidan aniqlangan bojaxona qonunbuzilish holatlari tahlil qilinganda, mazkur huquqbazarliklarning soni hamda huquqbazarlik ashyolarining miqdori yildan yilga ortib borganligini ko'rish mumkin. (1-jadval)

1-jadval



Izoh: Ushbu ma'lumotlar Bojaxona qo'mitasining BQB AAT dasturidagi ma'lumotlardan olingan.

Mavjud ma'lumotlar tahliliga ko'ra, bojaxona chegarasi orqali tovarlarni noqonuniy olib kirish bilan bog'liq holatlar yildan yilga ortib bormoqda.

Jumladan, 2020 yilda qiymati **64 млрд. 21,7 млн. со'млик** jami 254 ta, 2021 yilda qiymati **291 млрд. 903,6 млн. со'млик** jami 691 ta, 2022 yilda qiymati **193 млрд. 432,7 млн. со'млик** jami 922 ta huquqbazarlik holatlari aniqlangan bo'lib, mazkur holatlarning aksariyat qismi yuzasidan bojaxona xodimlari tomonidan jinoyat ishi qo'zg'atishni rad etish to'g'risida qaror qabul qilinib, huquqbazarlik ashyosi sifatida tovar moddiy boyliklari bojaxona rasmiylashtiruvidan o'tkazish maqsadida tashqi iqtisodiy faoliyat sub'ektlariga qaytarilgan. (2-jadval)

*Bojxona chegarasi orqali tovarlarni noqonuniy olib kirish
bilan bog'liq holatlar*

2-jadval

| 1 | Holat soni | 254 | 691 | 922 |
|----------|--|------------|------------|------------|
| 2 | TMB summasi (mlrd. so 'mda) | 64,1 | 291,9 | 193,4 |
| 3 | Jinoyat ishlari | 9 | 23 | 14 |
| 4 | TMB summasi (mlrd. so 'mda) | 14,2 | 33,8 | 5,8 |
| 5 | Jinoyat ishi rad etilgan | 18 | 136 | 168 |
| 6 | Qaytarilgan TMB summasi (mlrd. so 'mda) | 19,7 | 173,6 | 158,5 |
| 7 | Hisoblangan bojxona to'lovi (mlrd. so 'mda) | 2,5 | 30,9 | 13,9 |
| 8 | Undirilgan bojxona to'lovlar (mlrd. so 'mda) | 2,5 | 30,9 | 13,9 |
| 1 | Holat soni | 254 | 691 | 922 |

Izoh: Ushbu ma'lumotlar Bojxona qo'mitasining BQB AAT dasturidagi ma'lumotlardan olingan.

Endilikda, mazkur tovar moddiy boyliklari bojxona rasmiylashtiruvidan o'tkazish maqsadida TIF sub'ektlariga qaytarilgan holatlar o'rganilganda, quyidagi sabablarni inobatga olib ushbu holatlar bo'yicha jinoyat ishini qo'zg'atish rad qilinganligi ma'lum bo'ldi:

- O'zbekiston Respublikasi Bojxona Kodeksining 275-moddasi (*Deklarantning huquqlari*)da, tovarlarni deklaratsiyalashda deklarant bojxona deklaratsiyasi va bojxona maqsadlari uchun zarur boshqa hujjatlar berilguniga qadar tovarlarni bojxona nazorati ostida ko'zdan kechirish hamda o'lhash, ularning namunalari va nusxalarini olish huquqiga ega ekanligi [3];

Ma'lumot uchun: *O'zbekiston Respublikasi tomonidan 2020 yil 21 dekabrda ratifikatsiya qilingan "Bojxona tartib-taomillarini soddalashtirish va uyg'unlashtirish to'g'risida"gi xalqaro konvensiya (Kioto)ning 3.9.standartida, tovarlar uchun deklaratsiya topshirishdan oldin deklarantga bojxona tomonidan belgilangan shartlarda tovarlarni tekshirish va namuna olishga ruxsat berilishi belgilangan* [4].

- O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 20.02.2023 yildagi "Bojxona to'g'risidagi qonunchilikni buzish va kontrabandaga oid ishlar bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"gi 2-sonli qarorining 9-band 3-xat boshida bojxona organi tomonidan bojxona deklaratsiyasini tekshirish, tovarlarni ko'zdan kechirish va bojxona deklaratsiyasida ko'rsatilgan ma'lumotlar noto'g'riliqi aniqlangunga qadar bojxona deklaratsiyasida yo'l qo'yilgan xatolarning deklarant tomonidan mustaqqil tuzatilishi ma'muriy yoki jinoiy javobgarlikni istisno etishi ko'rsatib o'tilganligi [5];

- O'zbekiston Respublikasi Bojxona Kodeksining 248-moddasida, bojxona rasmiylashtirushi bojxona organi va deklarant yoxud vakolatlari shaxs o'rtasidagi tovarlarni bojxona rejimiga joylashtirish va (yoki) bojxona rejimining amal qilishini tugallash, bojxona to'lovlarini hisoblab chiqarish va to'lash yoxud ushbu Kodeksda nazarda tutilgan boshqa harakatlarni bajarish bilan bog'liq bo'lgan munosabatlar tartibga solinganidan keyin tugallanishi belgilanganligi ;

- O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 20.02.2023 yildagi "Bojxona to'g'risidagi qonunchilikni buzish va kontrabandaga oid ishlar bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"gi 2-sonli qarorining 10-band 3-xat boshida, bojxona hujjatlari yoki vositalariga o'xshatib yasalgan hujjatlardan aldashi yo'li bilan yoki deklaratsiyasiz yoxud boshqa nomga yozilgan deklaratsiyadan foydalangan holda tovarlarni bojxona chegarasidan o'tkazish jinoyati bojxona deklaratsiyasi qabul kilinganligi rasmiylashtirilgan paytdan boshlab tugallangan xisoblanishi ko'rsatib o'tilganligi;

- Chegara bojxona postlari orqali olib kirilgan tovarlarni bojxona xodimlari tomonidan bojxona ko‘rigidan o‘tkazish davomida aniqlangan yuk kuzatuv hujjatlarda ko‘rsatilganidan ortiqcha yoki hujjatlarda ko‘rsatilmagan tovarlar xorijiy yuk jo‘natuvchi firmalar tomonidan yuk kuzatuv hujjatlari to‘ldirishda texnik xatoliklarga yo‘l qo‘yilganligi sababli to‘liq ko‘rsatmaganligi;

Ma’lumot uchun: *Hozirgi kunda aksariyat holatlarda TIF sub’ektlari tomonidan bojxona organlariga xorijiy yuk jo‘natuvchi tashkilotlardan hujjatlarda ko‘rsatilgan mazkur xatoliklar texnik sabablarga ko‘ra yuzaga kelganligini bildirivchi ma’lumot xati hamda yuzaga kelgan tafovutlar bartaraf etilgan yuk kuzatuv hujjatlarini olib, taqdim etilmoqda.*

Shunga asosan, amaliyotda yuqoridagi omillar inobatga olinib, bu turdagи qonunbuzilish holatlarda Jinoyat Kodeksining 182-moddasida belgilangan jinoyat alomatlari yo‘qligi sababli, bojxona xodimlari tomonidan holat yuzasidan jinoyat ishi qo‘zg‘atish rad qilinib, tovar moddiy boyliklari bojxona rasmiylashtiruvidan o‘tkazish maqsadida TIF sub’ektlariga qaytarilmoqda.

Endilikda, bojxona chegarasi orqali tovar moddiy boyliklarini qonunga xilof ravishda olib o‘tish bilan bog‘liq holatlarni oldini olish, ular bo‘yicha javobgarlikni takomillashtirish hamda maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi JKning 182-moddasida belgilangan jinoiy javobgarlikni xalqaro va milliy qonunchilik talablariga solashtirish yuzasidan quyidagi takliflarni kiritaman:

Birinchidan, ma’lumki Jinoyat Kodeksining 182-moddasida ko‘rsatib o‘tilgan jinoyat quyidagi:

- Bojxona nazoratini chetlab;
- Bojxona nazoratidan yashirib;
- Bojxona hujjatlari yoki vositalariga o‘xshatib yasalgan hujjatlardan aldash yo‘li bilan foydalanib;
- Deklaratsiyasiz;
- Boshqa nomga yozilgan deklaratsiyadan foydalanib;
- Chegarani buzib o‘tish kabi usullardan biri orqali amalga oshirilganda sodir etilgan hisoblanadi [6].

Shunga ko‘ra, tovarlarni bojxona nazoratini chetlab yoki bojxona nazoratidan yashirib yoxud bojxona hujjatlari yoki vositalariga o‘xshatib yasalgan hujjatlardan aldash yo‘li bilan, shuningdek, chegarani buzib o‘tishda qasdning mavjudligi yaqqol ko‘rinsada, biroq, TIF sub’ektlari nomiga tovarlarning deklaratsiyasiz yoki boshqa nomga yozilgan deklaratsiyadan foydalangan holda olib kirilishi bilan bog‘liq qonunbuzilish holatlarda, yuqorida keltirib o‘tilgan omillar (*yuk kuzatuv hujjatlaridagi tavofutlar xorijiy yuk jo‘natuvchi firma tomonidan texnik xatolik sababli yuzaga kelganligi, yuk egasining tovarlar uchun bojxona yuk deklaratsiyasini taqdim qilishidan oldin mazkur tovarlarni ko‘zdan kechirish huquqining mavjudligi, bojxona chegarasi orqali kirib kelgan tovarlar bo‘yicha bojxona rasmiylashtiruvi tugallanmaganligi va b.q.*)ni inobatga olib qasdning mavjudligini isbotlash qiyin.

Yuqoridagilarni inobatga olib, JKning 182-moddasini quyidagi 3-qism bilan to‘ldirish:

Yakka tartibdagi tadbirkorlar va (yoki) yuridik shaxs bo‘lgan tadbirkorlik sub’ektlarining nomiga kelgan tovarlarni chegara bojxona postida bojxona ko‘rigidan o‘tkazish jarayonida yo‘l yuk kuzatuv hujjatlarda aniqlangan tafovutlar yakka tartibdagi tadbirkorlar va (yoki) yuridik shaxs bo‘lgan tadbirkorlik sub’ektlari tomonidan, mazkur tafovutlar aniqlangan paytdan e’tiboran uch kunlik muddatda mustaqqil tuzatilishi ularning ma’muriy va jinoiy javobgarlikka tortilishini istisno etadi, bunda yakka tartibdagi tadbirkorlar va (yoki) yuridik shaxs bo‘lgan tadbirkorlik sub’ektlari tomonidan deklaratsiyalishi talab etiladigan tovarlarni bojxona nazoratining “yashil” yo‘lagidan qasddan deklaratsiyalamasdan olib o‘tishi yoki tovarlarni bojxona rasmiylashtiruvidan o‘tkazish maqsadida ularni bojxona yuk deklaratsiyasida qasddan ko‘rsatmagan holda taqdim etish yoxud ushbu moddaning 2-qismi v, g-bandlari asosida sodir etish holatlari mustasno.

Ikkinchidan, hozirgi kunda mamlakatimizda bojxona tizimida ham bir qator islohotlar amalga oshirilib kelinmoqda.

Jumladan, bojxona nazoratini soddalashtirish, bojxona rasmiylashtiruvini yengillashtirish va kam vaqt sarflanishini ta'minlash hamda tovarlarning harakatini real vaqt rejimida kuzatib borish maqsadida Bojxona qo'mitasi tomonidan bir qator avtomatlashtirilgan axborot dasturlari ("E-tranzit", "Yuk operatsiyalari", "Xavfni boshqarish" AAT) amaliyotga joriy etilgan.

Shunga asosan, TIF sub'ektlari tomonidan yuk kuzatuv hujjatlaridagi tafovutlar bartaraf etilgandan so'ng, mazkur tovarlarni TIF sub'ektlari tomonidan bojxona rasmiylashtiruvidan o'tkazilishini va Davlat budgetiga bojxona to'lovlarini to'liq to'lanishini hamda undirilgan qo'shimcha bojxona to'lovlarining hisobotini yuritishni Bojxona qo'mitasining mayjud avtomatlashtirilgan axborot dasturlari orqali nazorat qilib borish mexanizmini yaratish.

Bunda qo'shimcha hisoblangan va undirilgan bojxona to'lovleri hisobidan chegara bojxona postining hamda bojxona xodimlarining ish samaradorligini baholash tartibini yo'l qo'yish.

Uchinchidan, ma'lumki O'zbekiston Respublikasining 25.12.2012 yildagi "Tezkor-qidiruv faoliyati to'g'risida"gi O'RQ-344-sonli Qonuniga asoan O'zbekiston Respublika Bojxona qo'mitasining organlari tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi organlar sifatida belgilangan bo'lib, mazkur Qonunning 14-moddasida 16 turdag'i tezkor-qidiruv tadbirlari ko'rsatib o'tilgan [7].

Shunga asosan, Bojxona qo'mitasining tegishli tezkor tarkibiy tuzilmalari tomonidan, Bojxona Kodeksining 275-moddasida belgilangan huquqidan va tovarlarni qaytarish uchun asos bo'lgan yuqorida ko'rsatib o'tilgan boshqa sabablardan foydalangan holda, tavakkalchilik asosida, qayta-qayta tovarlarni yuk kuzatuv hujjatlarida to'liq ko'rsatmasdan olib kelish holatlarni kamaytirish maqsadida, bu turdag'i holatlarni ko'p marotaba takrorlayotgan, "nohalol" TIF sub'ektlarining harakatida qasdning mavjudligini aniqlash maqsadida tanlov asosida tezkor-qidiruv tadbirlarini amalga oshirib borish.

Bunda, TIF sub'ektlarining tovarlarni bojxona chegarasi orqali yuk kuzatuv hujjatlarida bila turib ko'rsatmagan holda olib kirishga bo'lgan urinishlarini aniqlash va ularning mazkur harakatida qasdning mavjudligini isbotlash orqali jazo muqarrarligini ta'minlash mumkin.

Xulosa. Mazkur takliflarni amaliyotga joriy etish orqali quyidagi bir qator ijobiy natijalarga erishish mumkin:

- Milliy qonunchilikni xalqaro konvensiya talablari bilan bir xillashtirish;
- Mamlakatimizda tadbirkorlikni qo'llab quvvatlash yo'lida olib borilayotgan islohotlardan kelib chiqib, TIF sub'ektlarining qonunchilikda belgilangan huquqlarini cheklamaslik;
- TIF sub'ektlariga yengilliklar berish orqali, Bojxona qo'mitasining mavjud avtomatlashtirilgan axborot dasturlari orqali ortiqcha aniqlangan tovarlarning harakatini kuzatib turish;
- Bojxona nazoratining samaradorligini oshirish hamda chegara bojxona postlari tomonidan Davlat byujdetiga qo'shimcha bojxona to'lovleri undirilishini ta'minlash va ularning hisobotini yuritib borish;
- Bojxona qonunchiligini buzish bilan bog'liq jinoiy holatlarni malakalashdagi muammolarni bartaraf etish va bu turdag'i qonunbuzilish holatlari bo'yicha javobgarlikning muqarrarligini ta'minlash;
- Tezkor-qidiruv tadbirlarini amalga oshirgan holda TIF sub'ektlarining bu turdag'i jinoyatlarni sodir etishdagi harkatida qasdning mavjudligini isbotlash orqali jazo muqarrarligini ta'minlash;
- Bir TIF sub'ekti nomiga takroran yuk kuzatuv hujjatlarida ko'rsatilganidan ortiqcha kelgan tovarlarni, bojxona organi xodimi tomonidan yuqorida sanab o'tilgan sabablar asosida doimiy qaytarilishi natijasida, ular o'rtaida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan manfaatlar to'qnashuvining oldini olish.

ИҚТИБОСЛАР/СНОСКИ/REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasining 2018 yil 18 oktyabrda qabul qilingan "Davlat bojxona xizmati to'g'risida"gi Qonuni;
2. Abduraxmonov D.Sh. "O'zbekiston Respublikasida kapital harakatini tartibga solishning jinoiy huquqiy jihatlari", mag. diss. T.: STIBOM, 2003 yil;
3. O'zbekiston Respublikasi Bojxona Kodeksi // URL: <http://old.lex.uz/docs/2876354>;
4. "Bojxona tartib-taomillarini soddalashtirish va uyg'unlashtirish to'g'risida"gi xalqaro konvensiya;
5. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 20.02.2023 yildagi "Bojxona to'g'risidagi qonunchilikni buzish va kontrabandaga oid ishlar bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"gi 2-sonli qarori;
6. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksi // URL: <http://old.lex.uz/docs/111453?query>;
7. O'zbekiston Respublikasining 25.12.2012 yildagi "Tezkor-qidiruv faoliyati to'g'risida"gi O'RQ-344-sonli Qonuni

ISSN: 2181-4031
DOI Journal 10.56017/2181-4031

ФУНДАМЕНТАЛ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

I-ЖИЛД, 5-СОН

ЖУРНАЛ ФУНДАМЕНТАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ
TOM-I, НОМЕР-5

JOURNAL OF FUNDAMENTAL STUDIES
VOLUME-I, ISSUE-5

«Фундаментал тадқиқотлар» электрон журнали 2022 йил 22 декабрь куни № 054837-сонли гувоҳнома билан оммавий ахборот воситаси сифатида давлат рўйхатидан ўтказилган.

Муассис: «IMFAKTOR Pages» масъулияти чекланган жамияти.

Таҳририят манзили: 100152, Тошкент шаҳри, Учтепа тумани, “Ватан” МФЙ, Чилонзор 24-мавзеси, 2-үй.

Телефон номер: +99894-410 11 55

Эл. почта: tahririyat@imfaktor.uz

Веб-сайт: www.imfaktor.uz